“INSON” KONSEPTI BILAN BOG‘LIQ METAFORA VA O‘XSHATISHLAR (SHAVKAT RAHMON IJODI MISOLIDA)

Baxranova Muhayyo Rahmat qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy Universiteti 2-kurs magistranti.
baxranovamuhayyo@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada “Inson” konsepti bilan bog‘liq metafora va o‘xshatishlar, metafora, kognitiv metafora, konsept tushunchalari yoritilib, Shavkat Rahmon she’rlari misolida yoritib berilgan. Konsept tushunchasi juda keng qamrovli birlik bo‘lib, uni turli jihatdan tahlil etishimiz mumkin bo‘lsa-da, birinchi navbatda u madaniyat bilan bog‘liq lingvokulturologik atama sifatida namoyon bo‘ladi. Uni ma’lum bir matn bilan, amaliy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, istalgan badiiy matn ichida ma’lum bir konseptni uchratishimiz mumkin. Chunki badiiy matnning asosi hisoblanadigan, har qadamda uchratishimiz mumkin bo‘lgan ko‘chma ma’no aynan konsept bilan aloqadordir.

Kalit so‘zlar: konsept,inson, metafora, kognitiv metafora, o‘xshatish, badiiy matn.

Аннотация: В статье на примере стихотворений Шавката Рахмана выделены метафоры и сравнения, метафоры, когнитивные метафоры, концепт-концепты, связанные с концептом «Человек». Понятие концепт представляет собой весьма объемную единицу, и хотя мы можем анализировать его по-разному, прежде всего, оно предстает как лингвокультурный термин, относящийся к культуре. Анализируя его с определенным текстом, с практической точки зрения мы можем найти определенную концепцию в любом художественном тексте. Потому что образный смысл, лежащий в основе художественного текста и встречающийся на каждом шагу, связан с концептом.

Ключевые слова: концепт, человек, метафора, когнитивная метафора, сравнение, художественный текст.

Ключевые слова: концепт, человек, метафора, когнитивная метафора, сравнение, художественный текст.

Konsept tilning ijtimoiy-madaniy sathiga tegishli kognitiv, shu bilan birga, lingvokulturologik birlik bo‘lib uning lingvistik ifodasini o‘rganishda badiiy matnlarning o‘rni beqiyos. Durdona Xudayberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi ”[8] monografiyasida keltirib o‘tilgan kognitiv metaforalar tushunchasi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish jarayonida badiiy matn, uning ajralmas tarkibiy qismi

[8] D. Xudoyberganova. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent. 2013.

bo‘lgan metaforalar, ularga kognitiv semantik yondashuv to‘g‘risida ham qimmatli ma’lumotlar olishimiz mumkin.

Metafora tushunchani ifodasi sifatida kelganda matn tarkibida so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida namoyon bo‘lib, matnda qo‘llangan biror jumla tarkibidagi predmet belgi yoki harakat-holatning boshqa bir predmet belgi yoki harakat-holat bilan qiyosiy munosabatini ifodalaydi. Shavkat rahmonning “Girya” she’ridagi parchada bunga amin bo‘lishimiz mumkin:

G‘aflatda kulganlar,
ko‘ksin kerganlar,
yorlarin zulmatga qo‘yib berganlar,
farishta buvaklar kulin terganlar
nomus dog‘in yuvar mayxonalarda*...*
To‘rt fasl–
osilgan kulfat arshiga,
go‘yoki mudhish bir manzilga keldim.
Kuygan kechalarning qaltis avjida
chirqirab yig‘laydi bir to‘da yetim[9]**.**

Shoir o‘z davri, ijtimoiy muhit adolatsizliklaridan iztirob chekib haqiqat va adolat uchun kurashgan. O‘z misralarida xalqning umumiy qiyofasini aks ettirishga harakat qilgan. *Nomus dog‘in yuvar mayxonalarda*, *Kuygan kechalarning qaltis avjida, chirqirab yig‘laydi bir to‘da yetim* kabi misralardagi metaforik obrazlar orqali xalq qismatini qalamga oladi. Xalqning fojiaviy ahvolini yoritar ekan qiyinchilik va xo‘rlikda azoblanayotgan insonlar kechinmalarini ifodalashga harakat qiladi. *Yetim* leksemasida xalq farzandi yetimlik azobida qiynalayotganlik semasi ifodalangan. Inson konsepti Shavkat Rahmon uchun birinchi navbatda xalq hayoti mashaqqati sifatida o‘z aksini topgan.

Shavkat Rahmon o‘z she’rlarida inson konseptiga takror-takror murojaat etadi chunki shoir o‘z davri muhiti haqida insonlarning dard-u iztoblari haqida yozar ekan o‘zining ichki tuyg‘ularini yashira olmaydi. “Kenglik sog‘inchi” she’rida:

Armonim ulug‘dir...
quyoshim ulkan*,*
o‘lsam jasadimga yurtim to‘ljak.
So‘nggi zuryodimni zaharlar qullar,
so‘nggi chechaklarim aynib so‘lajak[10].

Ushbu she’rda *zuryodimni zaharlar, so‘nggi chechaklarim aynib so‘lajak* metaforalari ishtirok etgan bo‘lib, xalq dardi, xalq armoni, inson qismati o‘z ifodasini

[9] Раҳмон Ш. САЙЛАНМА. “ШАРҚ” нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти. Тошкент.1997. - В.206.
[10] Раҳмон Ш. САЙЛАНМА. “ШАРҚ” нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти. Тошкент.1997.. –В. 184.

topgan, shu bilan bir qatorda ***quyoshim ulkan*** deya orzulari va umidlarini ham nazardan chetga qoldirmaydi shoir.

Metaforalar orqali o‘z she’riyatini mazmunini yanada boyitgan shoirning quyidagi she’rida inson konseptiga oid misollarni chuqur mazmunga egaligini “Kenglik sog‘inchi” she’ridan olingan parchada ko‘rishimiz mumkin:

Ey, beklar,
Zahar ich–o‘zbeking qolib,
O‘zgaga bo‘ysunding,
o‘lganing shuldir.
Shundanmi, ***boshida teridan qolip,***
saksovul singari mayishgan bugun[11].

Shundanmi, boshida teridan qolip–xalqning manqurtligiga ishora sifatida ishlatilgan bo‘lib, o‘zgaga bo‘ysungan xalqga murojaat etadi. Keying misrada insonlarni qomatini tik tuta olmayotgan, o‘zgaga qulluq qilishga o‘rganib qolgan, boshini tik tuta olmaydigan xalqni *saksovul singari mayishgan* metaforasi orqali ifodalaydi.

F. Usmanov o‘zining “O‘zbek tilida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi” nomli doktorlik dissertatsiyasida o‘xshatishlarni o‘rganib, o‘zbek tilida turg‘un o‘xshatishlar natijasida 600dan ortiq o‘xshatish konstruksiyalari o‘rganilgan bo‘lib, 400dan ortiq o‘xshatish konstruksiyasi inson va u bilan bog‘liq, 200dan ortiq o‘xshatish konstruksiyasi esa tabiat va u bilan bog‘liq hodisalarni ifodalash uchun xizmat qilishini keltirib o‘tgan.[12] O‘xshatishlarning asosiy qismini insonga oidligi uning turli guruhlarda ifodalanishini ko‘rsatadi. Ya’niki insonni obrazli ifodalashda unga tashqi ko‘rinishi, harakteri, nutqiy faoliyati, jismoniy xususiyatlari va boshqa tomonlari aks etishi mumkin. Tashqi ko‘rinish jihatdan o‘zbek badiiy adabiyotida yuz chiroyi va qomat alohida o‘ringa ega. Insonlarning jamiyat a’zolari bilan munosabatida, kommunikativ kirishuvida dastlabki taassurot tashqi ko‘rinish asosida asosida hosil bo‘ladi.

Biz Shavkat Rahmon asarlarida inson konseptiga oid o‘xshatishlarga ham diqqatimizni qaratdik. Inson konsepti bilan bog‘liq turli guruhlarga iod o‘xshatishlarni farqlab chiqdik. “Davra” she’rida:

Og‘izlarda bulutday ko‘pik,
yuzlari oq, ichlari–qora,
qizig‘i, bu zotlar qaylarda
kimlarnidir qilar idora[13].

[11] Раҳмон Ш. САЙЛАНМА. “ШАРҚ” нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти. Тошкент.1997.. –В. 184.
[12] Usmanov F. O’zbek tilida o’xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Ffdoc.diss.–Toshkent, 2020.– 105 bet.
[13]Shavkat Rahmon Uyg’oq tog’lar.–83 bet.

*Og‘izlarda bulut**day** ko‘pik* maqtanish semasi aks etgan ma’no *bulut*ga o‘xshatish orqali kuchaytirilgan. She’rda Insonning maqtanchoqlik(*og‘izlarda bulutday ko‘pik)*, xudbin(*yuzlari oq, ichlari–qora*), amalparast rahbarlar, *(kimlarnidir qilar idora)* xislatlarini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari *ichlari–qora (ichi qora)* iborasi ko‘ngli xasadga to‘la, yaxshilik qo‘lidan kelmaydigan inson ma’nosi shakllangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘ladigan bo‘lsak, konsept bu inson ongidagi bilim bo‘lib u madaniyat va milliylik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushuncha tubida yashiringan chuqur ma’nodir. Konsept badiiy matnda turli birliklar orqali ifodalanadi, qaysi bir asarni oladigan bo‘lsak, zamirida inson konsepti yotadi usiz tahlil qilish mumkin emas, Shavkat Rahmon she’riyati bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Xudoyberganova. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent. 2013.

3. Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос, 2004. – 424 с.

3. Раҳмон Ш. САЙЛАНМА. “ШАРҚ” нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти. Тошкент.1997.

4. Usmanov F. O‘zbek tilida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Ffdoc.diss.–Toshkent, 2020.